KONTRAFAKT VA FALSIFIKATSIYA QILINGAN MAHSULOTLARNIN ANIQLASH VA ULARGA QARSHI KURASHISH.

L.R.Radjabova.
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Nabiyeva Muazzam
Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistr

Annotatasiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston bozorlarida qalbaki (kontrafakt) tovarlarning aniqlanishi, ularning tarqalish sabablari va ularga qarshi kurashish yo‘llari yoritilgan. Kontrafakt mahsulotlarning iste’molchilarga, ayniqsa inson salomatligiga yetkazayotgan zararli ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, bu holatga qarshi kurashishda huquqiy, texnik va ijtimoiy choralar muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: qayd etish, qalbaki tovarlar, kontrafakt, inson salomatligi, xavf, iste’molchi huquqlari, nazorat.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы выявления фальсифицированной (контрафактной) продукции на рынках Узбекистана, причины её распространения и меры по борьбе с этим явлением. Проведён научный анализ негативного влияния контрафактной продукции на здоровье человека. Также обсуждаются правовые, технические и социальные меры по противодействию распространению фальсификата.

Ключевые слова: обнаружение, фальсифицированная продукция, контрафакт, здоровье человека, риск, права потребителей, контроль.

Abstract: This article explores the identification of counterfeit (contraband) goods in the markets of Uzbekistan, the causes behind their distribution, and the strategies to combat them. It provides a scientific analysis of the harmful impact that counterfeit products have on human health. Legal, technical, and social measures to fight against counterfeit goods are also discussed.

Keywords: detection, counterfeit goods, contraband, human health, risk, consumer rights, control

Kirish

Barchamizga ma’lumki, sifatsiz kontrafakt tovarlarning muomalaga kiritilishi oqibatida, respublikamiz iqtisodiyotiga jiddiy zarar etkazgan holda, iste’molchilar huquqlarini qo‘pol ravishda poymol bo‘lishiga, mamlakatimizda nosog‘lom raqobatni vujudga kelishiga va iqtisodiy diversiya shakllanishiga sabab bo‘lmoqda.Mamlakatimizga rasmiy import qilingan tovarlarning Xitoyda ishlab chiqarilgan tovarlar tashkil etayotgan bo‘lsada, ichki hududlarda faoliyat olib borayotgan bozor va do‘konlarda sotilayotgan tovarlar, parfyumeriya mahsulotlari, kiyim kechak, dori-darmon va tibbiyot vositalari, bolalar o‘yinchoqlari, avtoulov

ISSN 3030-3907

ehtiyot qismlari, kanselyariya tovarlari, asosan, SD va DVD formatda yozilgan materiallar, uyali aloqa vositalari va maishiy texnika buyumlarining yorliqlarida ularning ishlab chiqarilgan mamlakati sifatida Italiya, Fransiya, Germaniya va boshqa etakchi davlatlar ko‘rsatilgan. Barchamizga ma’lumki, bunday sifatsiz kontrafakt tovarlarning muomalaga kiritilishi oqibatida, respublikamiz iqtisodiyotiga jiddiy zarar etkazgan holda, iste’molchilar huquqlarini qo‘pol ravishda poymol bo‘lishiga, mamlakatimizda nosog‘lom raqobatni vujudga kelishiga va iqtisodiy diversiya shakllanishiga sabab bo‘lmoqda.Xalqaro savdo palatasi (ICC) ning Kontrafakt va qaroqchilikka qarshi kurashish biznes assotsiatsiyasi (BASCAP) direktori Djeffri Xard joriy yilning oktyabr oyida o‘tkazilgan “Antikontrafakt-2012” xalqaro forumdagi ishtirokida, “2015-yilga borib jahon kontrafakt bozori 1,5 trln. AQSh dollariga qadar o‘sib borishi mumkinligi, bu esa bugungi kundagi ko‘rsatkichdan – 860 mlrd. AQSh dollaridan ikki barobar ko‘p” ekanligini ta’kidladi.

10-15%, tamaki mahsulotlarining– 1-2%, hatto 2% avia - qismlar ham qalbakilashtiriladi[1].

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning asosiy qismini mamlakatimizga import qilinadigan, birlamchi xalq istemoli tovarlari tashkil etadi. Xususan, bojxona organlari tomonidan tovarlar, transport vositalari ustidan bojxona ko‘rigini amalga oshirish jarayonida tashqi ko‘rinishi, asl ko‘rinishidan unchalik farq qilmaydigan kontrafakt tovarlar uchraydi. Mazkur holatlar esa qo‘shimcha ekspertiza o‘tkazilishini va ortiqcha vaqt sarfini talab etadi, shuningdek kontrafakt tovarlar korrupsiyaning kuchayishiga olib keladi. Shu bois ham, mazkur yo‘nalishdagi ishlarga jiddiy e’tibor qaratgan holda, bu boradagi tadbirlarni keskin jonlantirishimiz talab etiladi.Tovar (ish, xizmat) majburiy talablariga muvofiq kelishi shart bo‘lgan normativ hujjatning nomi; tovar (ish, xizmat)ning asosiy iste’mol xususiyatlari, shu jumladan, o‘ziga xos xususiyatlari ro‘yxati; bahosi (tarifi) va sotib olish shartlari; ayrim turdagi tovarlarning ishlab chiqarilgan sanasi; ishlab chiqaruvchi (ijrochi)ning kafillik majburiyatlari; tovardan samarali va xavfsiz foydalanish qoidalari hamda shartlari; tovarning xizmat (yaroqlilik) muddati va ushbu muddat tugaganidan keyin iste’molchi nima ishlar qilishi zarurligi, shuningdek bunday ishlarni bajarmaslik natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar; ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning nomi va mulkchilik shakli, ro‘yxatga olish va litsenziya guvohnomasining nomeri; ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning hamda ular iste’molchidan da’vo qabul qilishga vakolat bergan, shuningdek ta’mirlash ishlarini bajaradigan va texnikaviy xizmat ko‘rsatadigan korxonalarning

[1] http://www.forum-antikontrafakt.ru/facts/

ISSN 3030-3907

manzillari; tovarlarni saqlash, xavfsiz utilizatsiya qilish usullari hamda qoidalari; teatr-konsert tadbirlari o‘tkazilayotganda fonogrammadan foydalanilishi to‘g‘risidagi axborot. Sertifikatlanishi shart bo‘lgan tovar haqida iste’molchiga uning sertifikatlanganligi to‘g‘risida ma’lumot taqdim etilishi lozim. Tovar (ish, xizmat) haqidagi zarur axborotning yo‘qligi bunday tovar (ish, xizmat)ni realizatsiya qilish ma’lumot berilgunga qadar tegishli davlat boshqaruvi organining ko‘rsatmasi bo‘yicha to‘xtatib turilishiga sabab bo‘ladi.Iste’molchilar huquqlarining davlat tomonidan himoya qilinishini ta’minlanishi xususida Qonun (221-I) ning 23-moddasida fikr yuritiladi.O‘zbekiston Respublikasining 30.08.2001-yildagi 267-II “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi Qonunida tovar belgilari, ularni huquqiy jihatdan m-uhofaza qilish va bu sohasidagi vakolatli davlat organlari, mazkur qonun hujjatlarni buzganlik uchun javobgarlik masalalari keng yoritib berilgan.Mazkur Qonunning 3-moddasida “Tovar belgisi va xizmat ko‘rsatish belgisi” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan.

Tovar belgisi bu bir yuridik va jismoniy shaxslar tovarlari va xizmatlarini (bundan buyon matnda tovarlar deb yuritiladi) boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning shu turdagi tovarlaridan farqlash uchun xizmat qiladigan, belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan belgilardir. Tovar belgilari yakka tartibdagi va jamoaviy bo‘lishi mumkin. Alohida yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli tovar belgisi yakka tartibdagi belgi hisoblanadi. Yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar birlashmasining ular tomonidan ishlab chiqariladigan va (yoki) realizatsiya qilinadigan, bir xil sifatga yoki boshqa umumiy tavsiflarga ega bo‘lgan tovarlarini belgilash uchun mo‘ljallangan tovar belgisi jamoaviy belgi hisoblanadi.


Kontrafakt mahsulotlar importiga qarshi kurash maqsadida AQSh hukumati tomonidan shunday tovarlarni ishlab chiqaruvchi xorijiy kompaniyalarning har yilgi “qora ro‘yxati”ni joriy qilish amaliyotga kiritilgan. Hammaga ma’lum tovar belgisiga ushbu Qonunda tovar belgisi uchun nazarda tutilgan huquqiy m-uhofaza beriladi.Hammaga ma’lum tovar belgisini huquqiy m-uhofaza qilish[2] qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Apellyasiya kengashining qarori asosida beriladi.

Hammaga ma’lum tovar belgisining huquqiy m-uhofazasi muddatsiz amal qiladi. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolik kodeksi”ning Tovar belgisiga bo‘lgan huquqni buzganlik uchun javobgarlik haqidagi 1107-moddasiga binoan, Tovar belgisidan qonunga xilof ravishda foydalanayotgan shaxs qoidabuzarlikni to‘xtatishi va tovar belgisining egasiga etkazilgan zararni to‘lashi, qonunga xilof ravishda foydalanayotgan tovar belgisini yoki almashtirib yuborish darajasida unga o‘xshash bo‘lgan belgini tovardan yoki uning idishi va o‘rovidan yo‘qotishi shart.

[2] O‘zbekiston Respublikasining “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi qonunining 32[2]-moddasi.

ISSN 3030-3907

Ushbu talablarni bajarishning iloji bo‘lmagan taqdirda, tegishli tovar yo‘q qilib tashlanishi lozim.Shuningdek, Fuqarolik kodeksining 1111-moddasida “Tovar chiqarilgan joy nomidan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxs, shuningdek iste’molchilar huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar bu nomdan qonunga xilof foydalanayotgan shaxsdan nomdan foydalanishni to‘xtatish, tovardan, uning idishi va o‘rovidan, blankalar va boshqa hujjatlardan qonunga xilof foydalanilayotgan nomni yoki nom bilan adashtiradigan tarzda juda o‘xshash belgini yo‘qotishni, tayyorlab qo‘yilgan nom tasvirlarini va nom bilan adashtiradigan tarzda o‘xshash belgilarni yo‘q qilib tashlashni, basharti buning iloji bo‘lmasa tovarni va (yoki) idish va o‘rovni olib qo‘yish hamda yo‘q qilib tashlashni talab qilishga haqlidir. Tovar chiqarilgan joy nomidan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxs bu huquqni buzuvchidan o‘ziga etkazilgan zararning qoplanishini talab qilishga haqlidir” deb belgilangan.O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunining 66-moddasiga ko‘ra: “Asarlarning va turdosh huquqlar obyektlarining kontrafakt nusxalari, shuningdek ularni tayyorlash va takrorlashda foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalar hamda sodir etilgan huquqbuzarlikning boshqa vositalari qonun hujjatlariga muvofiq sud tartibida musodara qilinadi. Quyida ko‘rsatilgan demografik ma’lumot tahlilida 2024-yilda Respublikamizda intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar buzilganligining belgilari bo‘lgan tovarlarni chiqarib yuborishni to‘xtatib turish chorasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin.



1-rasm O‘zbekiston Respublikasi viloyatlar kesimida 2024- yilda intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar buzilganligining belgilari bo‘lgan tovarlarni chiqarib yuborishni to‘xtatib turish chorasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning demografik ma’lumotlar tahlili

ISSN 3030-3907

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasining “Firma nomlari to‘g‘risida”[3]gi qonunining 12-moddasida: noqonuniy foydalanilgan firma nomini kontrafakt tovarlar, yorliqlar, idishlar va o‘rovlardan huquqbuzar hisobidan olib tashlash; noqonuniy foydalanilgan firma nomini kontrafakt tovarlar, yorliqlar, idishlar va o‘rovlardan olib tashlash mumkin bo‘lmagan taqdirda, ularni huquqbuzar hisobidan yo‘q qilib tashlash; kontrafakt tovarlar, yorliqlar, idishlar va o‘rovlarni firma nomiga bo‘lgan huquqqa egalik qiluvchi yuridik shaxsga berish orqali amalga oshiriladi” deb belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi qonunining 5-moddasida “Sanoat mulki obyektlarini huquqiy m-uhofaza qilish” bo‘yicha quydagilar belgilangan.Sanoat mulki obyektiga bo‘lgan huquq muallifga (hammualliflarga) yoki uning (ularning) huquqiy vorisiga (huquqiy vorislariga) tegishli bo‘ladi va patent bilan tasdiqlanadi.Sanoat mulki obyektining patenti davlat ekspertizasi o‘tkazilganidan keyin beriladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, kontrafakt mahsulotlar importiga qarshi kurashda ayrim muammolarning saqlanib qolayotganligi unga qarshi kurash samaradorligining pasayishiga sabab bo‘lmoqda. O‘z navbatida, mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid soluvchi ushbu muammoga samarali qarshi kurashni tashkil qilish uchun yuqorida keltirilgan kamchiliklar bartaraf etilishi lozim. Bu borada har bir import iste’mol tovar partiyalarini chuqur tahlil qilish usullarini samaradorligini oshirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Q.M.Karimqulov, L.R.Radjabova. “Kontrafakt va falsifikatsiya qilingan mahsulotlar identifikatsiyalashning nazariy asoslari”. Tovarlar kimyosi hamda xalq tabobati muammolari va istiqbollari Mavzusidagi X Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. (Andijon, 2023, 14-15 sentyabr) 70-73 b.

2. Q.M.Karimqulov, L.R.Radjabova “Kontrafakt tovarlarni aniqlashda ekspertizaning ahamiyati”. “Sud ekspertiza sohasini rivojlantiris’hning zamonaviy usullari va ustuvor yo‘nalishlari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Toshkent 2023 yil. 494-499 bet

3. Karimqulov Q.M., Salixov S.A., Muratova Sh.N. Tovarshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Yos’hlar matbuoti OOO” nas’hriyoti, 2013 y. - 230 bet.

4. 105. Namozov.A. Iste’molchiar manfaatlari yo‘lida sifatsiz tovarlarning chetdan kirib kelis’higa chek qo‘yis’h borasidagi bojxona tizimi xodimlarining faoliyatlari. // Bojxona organlari uchun malakali kadrlar tayyorlas’h muammolari 2003 yil 1 noyabrdagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –T.:-2003 yil. 53-55 bet

ISSN 3030-3907

5. Актуалные проблемы таможенной классификации (на примере Товарной номенклатуры внешнеекономической деяателности Евразийского экономи-ческого союуза)” А.Ф.Алгазина Омский государственный университет им. Ф.М.Достоевского, г. Омск, Россия. (стр.73-76).

ISSN 3030-3907